

CHO'LTON DARAMATURG SIFATIDA: O'ZBEK DRAMALARINING YARATILISHI

Sariyeva Dilobar Abdunabiyevna

2-kurs adabiyotshunoslik magistri Termiz davlat universiteti Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid dramasining yaratilishi, Cho'lponning dramatik asarlari haqida ma'lumotlar bor

Tayanch so'zlar: obraz, drama, badiiy vositalar, jadid, sahna, o'zbek teatri.

XX asrning 20-yillarida o'zbek jadid adabiyoti yangi adabiy janrlar, turli tuman shakl va uslublarda o'zini namoyon qildi. Ayniqsa, dramaturgiyaning o'ziga xos shakl va mazmunda rivojlanishi e'tiborga loyiq. Aytish joyizki, sahna asarlarining genetik ildizlari xalq dramalari, qo'g'irchoq o'yini, o'zbek xalq tomosha san'atiga borib taqaladi. Alovida ijodkorlarning muayyan sahna asarini yaratishi o'zbek adabiyotida XX asrning 10-20-yillariga to'g'ri keladi. O'zbek dramaturgiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi jadid adiblar nomi bilan bog'liqdir.

Cho'lponning o'z maqolalarida va boshqa qaydlarda nomi zikr etiladigan, lekin topilmagan yoki yo'qolgan dramalari bo'lган. Bu boradagi tadqiqotlar, ilmiy maqolalarda Cho'lponning topilmagan sahna asarlari nomlari quyidagicha keltiriladi: 1. "Boy" (1914). 2. "Cho'rining isyonii" (1919, 1926). 3. "Xalil farang" (1917, 1921). 4. "O'rtoq Qarshiboyev" (1928). 5. "Yana uylanaman" (1926). 6. "Uzun qulqoq bobo". 7. "Cho'pon sevgisi". 8. "O'ldiruvchi" (1922). 9. "Hijrat" (1936, 1937). 10. "Buxoro jallodlari". 11. "Qorovul uyqusi" 12. "Ramazon ko'rinishlari" 13. "Ov". 14. "Siniq oyna".

"Yana uylanaman" sahna asari haqida Cho'lponning o'zi shu nomdag'i maqolasida bir talay ma'lumotlar beradi. "Maskovdagi dram istudiyamizning bu yilgi ishlaridan" tagsarlavhasi qo'yilgan ushbu maqola "Yusufjon akam sahnada! Mashhur qizig'imiz Yusufjon aka Moskva sahnasida!" jumlesi bilan boshlangan. Maqolaning bunday boshlanishi o'quvchini, albatta, qiziqtiradi. Cho'lponning keyingi o'rindagi izohiga ko'ra Yusufjon qiziq 1923 yilda bo'lib o'tgan Butunitifoq dehqonchilik ko'rgazmasiga kelib qatnashgan. Bu safar esa muharrir, yozuvchi, fofianavis sifatida chiqmoqda, deydi Cho'lpon. Yusufjon qiziqning ko'p joylarda aytib yuradigan bir kulgili hikoyasi bo'lib, Cho'lpon uni qayta ishlab hikoya qilmoqchi bo'ladi. Meyerxold teatri L.Sverdlinga tarjima asarni sahnaga qo'yish topshirig'ini beradi, lekin L.Sverdin "asl (original)" (Cho'lpon) asar qo'yimokchi bo'ladi. Cho'lpon unga Yusufjon qiziqdan eshitgan hikoyasini aytganda, "ma'kul bo'ldi va boshi ketiga ko'rinishlar qo'shib, tezlik bilan yozib berishga" buyuradi. Shu tarzda "Yana uylanaman" asari maydonga keladi. Maqoladan ma'lum bulishicha, komediya 1926 yilda Moskva teatrida sahnaga qo'yilgan, hatto Butunitifoq

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

sho'rolar qurultoyiga kelgan vakillarga ayrim sahnalarni namoyish qilganlar. Keyingi yil qishda O'zbekistonda, poytaxtda qo'yilsa kerak, deydi muallif.

Adabiyotshunos N.Karimov fikricha, mazkur komediya Toshkent va Samarqandda qo'yilgan. Agar Cho'lponning 1927 yilda Samarqandda O'zbek drama studiyasida faoliyat olib borganini nazarda tutsak, "Yana uylanaman" komediyasining sahnaga qo'yilganini taxmin kilish mumkin. Biroq bu asarning o'zbek sahnasida qo'yilganini aniq dalillovchi faktlar yetishmaydi.

Jadid dramaturgiysi, xususan Cho'lpon dramatik asarlari haqida adabiyotshunoslikda turli darajada ishlar amalga oshirilgan. Adabiyotshunos olimlardan O.Sharafiddinovning "Cho'lpon" risolasining to'rtinchi bobi Cho'lpon dramalariga bag'ishlangan¹. Unda Cho'lponning "o'zbek teatrining rivojida Cho'lponning xizmatlari Hamza Hakimzoda va Uyg'urlarning xizmatidan kam emasligi", "Cho'lponning o'zbek dramaturgiysi va teatri soxasidagi xizmatlari juda salmokli bo'lishiga qaramay, ko'p yillar davomida bu to'g'rida lom-mim deyilmay kelingan"i to'g'ri ta'kidlangan. Asarda "Yorqinoy" dramasidan tashkari sakkizta drama nomi manbalarda keltirilishi, lekin ularning aksariyatining matnlari yo'qligi aytildi. Risolada Cho'lponning "Yorqinoy", "Hujum", "Boy", "Xalil farang", "Cho'pon sevgisi", "Cho'rining isyoni", "O'rtoq Karshiboyev", "Mushtumzo'r" ("Zamona xotini") nomlari aytildi, ayrim asarlarga to'xtalib o'tiladi. Buning qatorida biz so'z yuritmoqchi bo'lgan "Yana uylanaman" komediyasi zikr etilmagan. S.Mamajonov "Bizning Cho'lpon" asarida Cho'lpon sahna asarlарining yaratilishi, o'sha davrda sahnalashtirilishi, shoirning nomlari ma'lum, lekin matnlari topilmagan dramatik asarlari, xususan "Yana uylanaman" komediyasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni takdim etadi². N.Karimovning yana "Cho'lpon" ma'rifiy romanining "O'zbek dramstudiysi", "Cho'lpon teatri", "Hujum" fasllarida Cho'lponning dramaturgik faoliyati, uning teatrda adabiy emakdosh vazifasida ishlagan davridagi voqealar bayon qilinadi³. Adabiyotshunos olimning "Istiqlolni uyg'otgan shoir"⁴ kitobida, "Cho'lpon va uning badiiy olami" nomli maqolasida⁵ Cho'lponning O'zbek drama studiyasidagi ijodi, Samarqand, Moskvadagi dramaturgik faoliyati tahlil qilinadi. Sh.Rizayevning "Jadid dramasi" asarida o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida Cho'lponning ham hissasi borligi qayd etiladi⁶. D.Quronovning "Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi" asarida Cho'lponning o'zbek teatridagi faoliyati, dramalarining ayrim jihatlariga e'tibor qaratiladi⁷.

Cho'lponning "Yana uylanaman" pyesasi komediya janriga mansub bo'lib, shu kungacha uning nomi, umumiy mazmuni haqida ayrim ma'lumotlar mavjud edi

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

xolos. Komediyaning matni ilmiy va adabiy jamoatchilikka ma'lum emas edi. 2020 yilgi izlanishlarga ko'ra jadid shoirning "Yana uylanaman" komediyasi matni topildi. Mazkur komediya rus tilida bo'lib, yozuv mashinkasida yozilgan, 33 betdan iborat. Asar muallifi Cho'lpon ekanligi birinchi betda qayd etilgan. Sarlavha dastlab o'zbek tilida "Pul undirish" ili "Yana o'ylanaman" deb yozilgan, so'ngra qavsda "Snova xochu jenitsya" deb yozib qo'yilgan.

"Yana uylanaman" pyesasi 3 parda 6 ko'rinishli komediya bo'lib, masjid imomining ish haqini bir boy o'zlashtirib olgani, shu ikki yillik haqni undira olmayotganligi to'g'risida xotini bilan tortishib qolgani, achchiq qilib xotini ustiga xotin olmoqchi bo'lgani, imomning hiyla yo'li bilan boydan haqini undirishi kabi voqyealar humor orkali ko'rsatib beriladi. Komediyada bosh qahramonlar masjid imomi, uning xotini To'tixon, boy, To'xtasin, Sotqin kabilalar, masjid ahli, Shirmon xola, boyning ikkinchi xotini Nazokat, Turg'un, ayiq o'ynatuvchi kabi ikkinchi darajali qahramonlar ishtirok etadilar.

Cho'lpon o'z ijodiy faoliyati davomida dramaturgiya sohasiga murojaat qilishi dramaturgiya jadid adiblarning yangicha qarashlarini ifodalovchi, xalqqa jadid g'oyalarini tezroq yetkazish vositasi edi. Behbudiy, Fitrat, Hamza, Avloniy kabi qator adiblar singari Cho'lpon ham bir necha pyesalar yaratdi. U yaratgan pyesalar o'ndan ortiq bo'lib son jihatdan u qadar ko'pchilikni tashkil qilmasa-da, mavzusining dolzarbligi, mazmun qamrovi, davr masalalarini aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Uning dramalarida davr ijtimoiy-siyosiy masalalari, millat erki va ravnaki, xotin-qizlar huquqi, jaholat va ma'rifat g'oyasi ilgari surilgan. Shu bois mazkur asarlarning ahamiyati barcha davrlar uchun muhimdir.

FOYFALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sharafiddinov O. Cho'lpon. - T.: "Cho'lpon", 1991. – 80-bet.
2. Mamajonov S. Bizning Cho'lpon. - T.: "Yozuvchi", 1997. – 16-17-betlar.
3. Karimov N. Cho'lpon (Ma'rifiy roman). - T.: "Sharq", 2003. – 309,327-betlar.
4. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir. - T.: "Ma'naviyat", 2000. - 88 b.
5. Cho'lponning badiiy olami. - Toshkent: Fan, 1994. - 132 b.
6. Rizaev SH. Jadid draasi. - T.: Sharq, 1997. – 111-b.
7. Qur'onov D. Cho'lponning hayoti va ijodiy merosi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1997. - 80 b.